



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili uchun
“YOSH TARIXCHI” NOMLI

TO'GARAK
HUJJATLARI

To‘g‘arak a‘zolari haqida ma’lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona*_____

“_____” *To‘g‘arak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari*

To‘g‘arak rahbari_____

[illegible]

“_____” To‘g‘arak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

*To'g'arak rahbari*_____

[illegible]

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarix fanidan “Yosh tarixchi” to‘garagining
ISH REJASI

№	To‘garak mavzusi	Soat	To‘garak o‘tiladigan sana	Izoh
1	German qabilalari va Rim imperiyasi	1		
2	Franklar. Franklar davlatining tashkil topishi	1		
3	Ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar	1		
4	Britaniyadan – Angliyaga	1		
5	Franklar imperiyasi	1		
6	Ilk o‘rta asrlarda Xorazm. Xioniylar va Kidariy davlatlari	1		
7	Muqaddas Rim imperiyasi	1		
8	Vizantiya: G‘arb va Sharq orasida	1		
9	Eftallar davlati. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	1		
10	Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi	1		
11	Sharqiy slavyanlar. Kiev Rusi davlati	1		
12	O‘rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida	1		
13	Yevropa xalqlarining madaniyati	1		
14	Arabiston va Arab xalifaligi	1		
15	Hindiston va Xitoy	1		
16	Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi	1		
17	Osiyo mamlakatlari madaniyati	1		
18	Yevropa va Osiyoda o‘rta asr shaharlari	1		
19	VI-VII asrlarda madaniy hayot	1		
20	O‘rta asrlarda tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi. Bozor va yarmarkalar	1		
21	O‘rta asrlarda xristianlik	1		
22	Movarounnahrda arab xalifaligining o‘rnatilishi	1		
23	Salib yurishlari	1		
24	Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi, mutlaq monarxiya	1		
25	Movarounnahrda islom dinining yoyilishi	1		
26	Xalifalikka qarshi xalq noroziligi.	1		
27	Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi	1		
28	Qorluqlar va O‘g‘uzlar davlati. Toxiriylar davlati	1		
29	Germaniya	1		
30	Ruslarning bosqinchilarga qarshi kurashi	1		
31	Somoniylar.	1		

32	Yevropa madaniyati	1		
33	Gʻaznaviylar	1		
34	Qoraxoniylar	1		
35	Gʻarbiy Yevropada meʼmorchilik, sanʼat va adabiyot	1		
36	Xorazm davlati va uning yuksalishi	1		
37	Moʻgʻullar davlati	1		
38	Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari	1		
39	Saljuqiylar va Usmonli turklar davlati	1		
40	Jaloliddin Manguberding Xorazm taxtiga oʻtirishi	1		
41	Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda, Vatan qahramoni	1		
42	Chigʻatoy ulusining tashkil topishi	1		
43	Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	1		
44	Oltin Oʻrda xonligi	1		
45	Etnik jarayonlar va oʻzbek xalqining shakllanishi	1		
46	Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti	1		
47	Xitoy	1		
48	Adabiyot	1		
49	Diniy bilimlarning rivojlanishi	1		
50	Yaponiya	1		
51	Meʼmorchilik, sanʼat va musiqa	1		
52	XIV asrning oʻrtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.	1		
53	Oʻrta asrlarda Koreya	1		
54	Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi	1		
55	Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim.	1		
56	Hindiston	1		
57	Amir Temurning tashqi siyosati	1		
58	Amir Temurning jahon tarixida tutgan oʻrni	1		
59	Amerika oʻrta asrlarda	1		
60	Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar	1		
61	Mirzo Ulugʻbekning hukmronligi davrida Movarounnahr	1		
62	Afrika xalqlari oʻrta asrlarda	1		
63	Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi	1		
64	Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bunyodkorlik	1		
65	Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari madaniyati	1		
66	Taʼlim tizimi. Aniq fanlarning rivojlanishi	1		
67	Adabiyot , Tasviriy sanʼat.	1		
68	Sayohat darsi. (Tarixiy-meʼmoriy obidalar joylashgan shaharlarga sayohat qilish)	1		

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: German qabilalari va Rim imperiyasi

To‘garakning maqsadi: O‘quvchilarga german qabilalari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy turmushi haqida ma’lumot berish.

Milodning ilk asrlarida Osiyodagi xunn, Yevropadagi german qabilalarida mulkiy tabaqalanish kuchayib, ular zaiflasha boshlagan Rim imperiyasiga bosqinlarini kuchaytirishgan.

Buyuk ko‘chish haqida. IV - VI asrlar Yevropa tarixiga xalqlarning buyuk ko‘chishi nomi bilan kirgan. Ko‘chish natijasida xalqlarning yashash hududlari keskin o‘zgarib ketgan. Bunday ko‘chishga quyidagi omillar sabab bo‘lgan: **birinchidan**, ko‘pgina xalqlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘sgan. Bu hodisa, ayniqsa, german qabilalarida kuchli bo‘lgan. Oqibatda germanlarda yangi-yangi yerlarga talab kuchaygan. Bu talabni o‘zgalar yerini egallab olishsiz qondirib bo‘lmas edi. O‘sha davrlarda G‘arbiy Rim imperiyasi holdan toygan edi. Bu hol germanlarga imperiya hududlarini asta-sekin egallab olish, bora-bora butunlay istilo qilish uchun sharoit yaratgan. **Ikkinchidan**, Sharqda yashovchi qudratli ko‘chmanchi xun qabilalarining G‘arbga istilochilik yurishi boshlangan. Kuchsiz qabilalar o‘zlari yashayotgan joylarni tashlab, boshqa yurtlarga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Uchinchidan, tabiatdagi iqlim o‘zgarishlari ham buyuk ko‘chishga sabab bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar ob-havoning keskin sovishi bilan bog‘liq edi. Ekin maydonlari tobora ko‘proq yaroqsiz holga kela boshlagan. Turli qabilalar yashash uchun iqlimi qulay joylarga ko‘chishga majbur bo‘lganlar.



Buyuk ko‘chish oqibatlari. Buyuk ko‘chish davrida german qabilalari G‘arbiy Rim imperiyasi hududlarini istilo qildilar. Zulmdan aziyat chekkan qullar va boshqa ezilgan tabaqalar ularga yordam berganlar. Oxir-oqibatda G‘arbiy Rim imperiyasi halokatga yuz tutgan. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi shunchaki bir davlatning qulashigina emas edi. Bu, ayni paytda, asrlar davomida hukm surib kelgan quldorlik tuzumining Yevropada barham topishi ham edi. Endi Yevropada yangi jamiyat (yuqorida siz nomini bilib olgan) - feodal jamiyati qaror topa boshladi. Bundan tashqari, xalqlarning buyuk ko‘chishi oqibatida turli xalqlarning bir-biri bilan aralashuvi yuz berdi. Ularning madaniy qiyofasi ham keskin o‘zgardi.

Germanlarning G‘arbiy Rim imperiyasi taqdirida tutgan o‘rni. Hech qanday moddiy manfaatga asoslanmagan qullar mehnatining samarasizligi G‘arbiy Rim imperiyasini tobora zaiflashtirgan. Ayni paytda olib borilgan tinimsiz istilochilik urushlari imperiyani holdan toydirgan. Bora-bora imperiya hatto istilochilik urushlari olib borishga ham qodir bo‘lmay qolgan. Endi u o‘z chegaralarini o‘zgalar hujumidan bazo‘r himoya qilishga majbur edi. Imperiyadagi bu ahvol german qabilalarining bostirib kirishiga juda qulay sharoit yaratgan. Bu davrda germanlarda urug‘chilik tuzumining so‘nggi bosqichi davom etardi. German qabilalari bo‘lgan vandallar, gotlar, franklar, angl va sakslarning qudrati tobora ortib borgan. Kuchsizlanib qolgan G‘arbiy Rim imperiyasi german qabilalari siquviga bardosh bera olmagan. German qabilalari harbiy kuchlari boshliqlaridan biri Odoakr 476- yilda Rimning so‘nggi imperatori go‘dak Romul Avgustulni taxtdan tushirdi. Shu tariqa G‘arbiy Rim imperiyasi barham topgan. Vandallar sobiq imperiyaga qarashli Shimoliy Afrikani, g‘arbiy gotlar (vestgotlar) Ispaniyani, sharqiy gotlar (ostgotlar) Italiyani, franklar Galliyani, angl va sakslar esa Britaniyani egallab oldilar. Shu joylarda o‘z davlatlarini barpo etdilar

Maktab MMIBDO‘ _____ Sana _____ 20__yil

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: .To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Franklar. Franklar davlatining tashkil topishi

To‘garakning maqsadi: O‘quvchilarga frank qabilalari, ularning turmush tarzi va davlati shakllanishi haqida ma’lumot berish.

"Frank" so‘zi - jasur, erkin degan ma’nolarni anglatadi. Bu atama qator german qabilalariga nisbatan qo‘llaniladigan umumiy nom edi. Franklar asosan Reyn daryosining o‘rta va quyi oqim bo‘ylarida yashaganlar. Franklar dengiz bo‘yi (sali) va qirg‘oq (ripuar) franklariga bo‘linganlar. Franklarning G‘arbiy Rim imperiyasi bilan munosabatlari bir xilda kechmagan. Ular bir-birlari bilan ba‘zan dushman, ba‘zan ittifoqchi bo‘lganlar. Sali franklari ancha kuchli edi. Ular Xlodvig hukmronlik qilgan yillarda (481-511) nihoyatda kuchaygan.

Xlodvig tez orada barcha frank qabilalari ustidan hukmronlik o‘rnatgan va 486- yilda Shimoliy Galliyanı egallagan. Shu tariqa Franklar davlati (hozirgi Fransiya shu nomdan olingan) tashkil topgan. Qirol Xlodvig Franklar davlatida merovinglar sulolasi hukmronligiga asos solgan. Sulola nomi Xlodvigning ajdodi Merovey nomidan olingan. U sali franklariga yetakchilik qilganlardan biri edi. Qirol hokimiyati tobora kuchayib borgan. U davlat boshqaruvinı barcha sohalarini o‘z qo‘liga olgan. Uning hokimiyati yirik yer egaligiga va harbiy kuchga asoslangan. Davlatni o‘z mulki kabi boshqargan. Xlodvig mamlakatni viloyatlarga bo‘lgan. Ularnı qirol tayinlaydigan *graflar* boshqargan.

"Sali haqiqati". "Sali haqiqati" franklar qonunlari to‘plami edi. To‘plam franklarning asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganliklaridan dalolat beradi. Qonunga ko‘ra yer ikki qismga: shaxsiy yerlar va jamoa yerlariga bo‘lingan. Yaylov hamda o‘rmonlardan esa hamma birgalikda foydalangan. Ayollarga yer berish yoki meros qoldirish taqiqlangan. Bunda ayollarning vaqti kelib urug‘dan chetga chiqib ketishlari hisobga olingan. "Sali haqiqati" odamlar o‘rtasida tabaqalanish ro‘y berganligini tasdiqlaydi. Chunonchi, qirol jangchilarining xuni oddiy erkin frank xunidan uch marta ko‘p bo‘lgan. "Sali haqiqati"ga ko‘ra o‘ldirilgan urug‘ a‘zosi uchun o‘ldirgan urug‘ xun to‘lagan.

Xristian dinining qabul qilinishi. Xlodvig uzoqni ko‘ra oluvchi hukmdor bo‘lgan. Bu xususiyat uning dinga munosabatida ham qo‘l kelgan. Xlodvig va uning qurolli kuchlari 486-yilda xristian dinini qabul qildilar. Tez orada barcha franklar shu dinga o‘tganlar. Bu hodisa qirollikning yanada mustahkamlanishiga sharoit yaratgan. Nufuzli ruhoniylar Xlodvigni qo‘llab-quvvatlaganlar. VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Frank qirolligi barcha german qirolliklari ichida eng kattasi va qudratlisiga aylangan.



Katta yer egaligining o‘shishi. Franklarda katta yer egaligining qaror topishi tobora kuchayib borgan. Bu jarayon IX asrga kelib tugallangan. Jamiyat katta yer egalari (feodallar) va qaram dehqon(krepostnoy)larga bo‘lingan. Bu hodisa qay tariqa yuz bergan? VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab franklarda yer xususiy mulkka aylandi. Bu - yeri bor mulkdor o‘z yerini xohlasa o‘zida qoldirish, xohlasa sotish, almashtirish, taqdim etish yoki meros qoldirish, yana yer sotib olish huquqiga ega, degani edi. Bunday tartibdan kam yerli oddiy, erkin franklar eng ko‘p jabr ko‘rganlar. Tabiiy ofatlar, tinimsiz urushlar, qarzga botib qolish, soliqlarni to‘lay olmaslik va boshqa qator omillar ularni xonavayron qilgan. Natijada oddiy, erkin frank o‘ziga tegishli yerni boy qo‘shnisiga arzongarovga sotishga majbur bo‘lgan. Bundan tashqari, o‘z qo‘shiniga ega bo‘lish huquqi bor bo‘lgan graflar jangchilarga xizmati uchun yer berar edilar. Ular o‘z yerlarini kengaytirish maqsadida qashshoqlashib qolgan erkin franklardan yerlar sotib olardilar. Yeridan ajralgan sobiq erkin frank katta yer egalari qaram krepostnoyga aylanardi. Yer egasi unga chek yer bergan. Krepostnoy endi ham o‘zining chek yerida, ham katta yer egasining yerida ishlashga majbur bo‘lgan. Chek yerda yetishtirgan hosilning bir qismini feodalga soliq sifatida to‘lagan. Shu tariqa feodal majburiyat shakllari bo‘lgan *barshchina* va *obrok* vujudga kelgan.

Maktab MMIBDO‘ _____ Sana _____ 20 __yil

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: .To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar

To‘garakning maqsadi: O‘quvchilarga ilk o‘rta asrlarda yurtimiz hududida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish.

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang‘ davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu siljishlar oqibatida mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shaharlarning soni ko‘paydi va hududi kengaydi. Shahar ilk o‘rta asrlardan boshlab hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi.

Vohalarda yirik sug‘orish tarmoqlari qazilib, sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig‘ir va charxpalak kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g‘allakorlik, sholikorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog‘dorchilik maydonlari kengaydi. Ekin maydonlarini sug‘orish va ishlov berishning takomillashuvi tufayli aholi dehqonchilikdan mo‘l hosil oladigan bo‘ldi.

Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi o‘tarildi. Bir tomondan, yerga, ziroatkor maydonlarga bo‘lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o‘zgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o‘troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o‘rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog‘oldi mintaqalarida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troq hayot tarziga o‘tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib borishi natijasida qo‘riq va bo‘z yerlarga suv chiqarilib, katta-katta ekin maydonlari barpo etildi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda mamlakat ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo‘lgan mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda qabila boshliqlari sarkor-ishboshi sifatida faol qatnashadilar. Qo‘riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma’lum bir ulushi ularning qo‘liga o‘tadi va merosiy mulkiga aylanadi. Shu tariqa kattagina yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi.

Sarkorlar o‘zlariga tegishli yer maydonlarini sug‘orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to‘g‘on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo‘l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemaol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o‘z ta’sirini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O‘sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan.

Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do‘kon-u rastalaridan iborat kattagina xo‘jalikka ham ega edilar. Qishloqlarda esa ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko‘shk va istehkomli qo‘rg‘onlari, objuvoz-u moyjuvoz hamda tegirmonlari bo‘lardi. Qul, cho‘rilardan iborat ko‘pdan ko‘p xizmatkorlar dehqonlarning xo‘jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Bulardan tashqari har bir katta yer egasining 30-40, 50-100 va ba‘zan undan ortiq maxsus askariy guruhi - chokarlari bo‘lgan. Chokarlar baquwat va abjir hamda Mulkdor dehqon oilasi. o‘z xojasiga sadoqatli o‘spirinlardan tan lab olingan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yov hujumi paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashardi. Osoyishtalik zamonda esa chokarlarga suyanib, qishloqning ziroatkor ahli ustidan hukmlarini o‘tkazardi. Avvalda o‘z qaramog‘idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar keyinchalik turli yo‘llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora-bora ular kuchidan foydalanadigan bo‘ladilar. Shunday qilib, mamlakatda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer egalari bo‘lmish dehqonlar bilan bir qatorda kadivarlar tabaqasi ham paydo bo‘ladi. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib borishi bilan kadivarlarning soni asta-sekin ko‘payib, dehqonchilik xo‘jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biriga aylanadilar.

V asrning o‘rtalariga kelib, garchi ekin yerlarining ma’lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo‘l ostidagi mulklardan iborat bo‘lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog‘ida edi. Yer egaligining tarkib topishi oqibatida mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ushbu o‘zgarishlar ayniqsa qishloqlarda sezilarli bo‘ldi. Qishloq jamoalari yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo‘lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib bordi. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi kashovarlar deb atalardi. Ularning ma’lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo‘lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Ayrim dehqonchilik vohalarining katta yerlarga ega bo‘lgan dehqonlari esa o‘z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo‘lib oladilar.

Maktab MMIBDO‘ _____ Sana _____ 20 __yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Britaniyadan – Angliyaga

To‘garakning maqsadi: O‘quvchilarga Britaniya oroli aholisi, unga german qabilalarining o‘rnashishi, Daniya bilan kurashi haqida ma‘lumot berish.

Rim imperiyasi Britaniya orollarini istilo qilganida orol janubida kelt, britt, shimolida – hozirgi Irlandiya va Shotlandiyada – skot, pikt qabilalari yashagan. Rim legionlari 407-yilda Britaniyani tashlab Italiyaga qaytadi. Ularning ketidan qolgan rimliklar ham Yevropaga keta boshlaydi. Shu tariqa orolning **kelt** aholisi o‘z holicha qoldiriladi. **Xavfli himoyachilar.** Piktlerden himoyalaniş uchun mahalliy brittlar ilk marotaba germanlarning **yut, angl vasaks** qabilalaridan yollanma drujinalarni taklif etgan. Bu qabilalar Germaniyaning shimoli va Yutlandiya yarimorolida yashardi. Dastlab germanlar uchta kemada kelishadi. Lekin ko‘p o‘tmay ularning ortidan ko‘plab qabiladoshlari yo‘lga chiqadi. Germanlarning keltlardan tobora yuqori to‘lov talab qilishi, doimiy isyonlari, mamlakatni talashlari va tahdidlari kuchayib boradi. Yutlar V asr o‘rtalarida **Kent** viloyatini bosib oladi. Ularning izidan angl-sakslar ham keltlarga hujum boshlab, qattiq qarshilik bo‘lmaganidan mamlakatni istilo qilishga kirishadilar. Angl-sakslar mahalliy aholining bir qismini qirib, ayrimlarini qullik asoratiga soladilar. Shaharlar katta talafot ko‘radi, majusiy germanlar ibodatxona va monastirlarni talab, yondirib yuboradilar. Istilo dahshatidan ko‘pgina keltlar qit‘aga, **Armorika** viloyatiga ko‘chib o‘tadi. Fransiyaning shimoli-g‘arbidagi bu hudud brittlarning ommaviy ko‘chishidan so‘ng **Bretan** nomini olib, bu nomni hozirga qadar saqlab qolgan. **Qirol Artur.** Britaniya oroliga bostirib kelayotgan germanlarga qarshilik ko‘rsatish **Amvrosiy Avrelian** nomi bilan bog‘liq. U oroldagi so‘nggi rimliklardan edi. Amvrosiy Avrelian VI asrning boshlarida brittlarni birlashtiradi. Buning natijasida u qator yorqin g‘alabalarga erishadi. Kuchli qo‘shin tuza olgan Amvrosiy Avrelian angl-sakslar tazyiqini deyarli yarim asrga to‘xtatadi. Kelt qabilalari xotirasida bu g‘alabalar haqidagi ma‘lumotlar asrlar davomida saqlanadi. Lekin rivoyatlarda bosqinchilarga zarba bergan qahramonning ismi o‘zgargan. Dostonchilar uni **Artorius** yoki **Artur** deb atay boshlashgan. Vaqt o‘tishi bilan Artur siymosi atrofida VI asrga aloqasi bo‘lmagan ko‘plab tarixiy afsonalar to‘planadi. Oradan besh asr o‘tib ham Yevropaning turli mamlakatlari yozuvchilari qirol Artur va uning ritsarlari **Lanselot**, qirolicha **Jinevra**, sehrgar **Merlin**lar haqida asarlarni yaratishda davom etishadi. Bu asarlar kitobxonlar orasida keng tarqaladi. **Kurashning yakuni.** Amvrosiy Avreliandan so‘ng brittlarda munosib yo‘lboshchi bo‘lmazligi angl-sakslar tomonidan orolning katta qismi bosib olinishiga imkon beradi. Bosqinchilarning ko‘plab qabilalari va bo‘ysundirilgan aholining qolgan qismi yagona xalqqa birlasha boshlaydi. Tarixda ular **angl-saks** nomini oladi. **Yangi bosqin.** Norvegiya yoki Daniya sohilidan chiqqan kema Britaniya orollariga bir necha kun ichida suzib borgan. Zamondoshlarining yozishicha, shu sababdan daniyaliklar har yili hujum qilib Angliya xalqining mol-mulkini talagan. Xattotlik san‘ati markazlari bo‘lgan Irland monastirlari normannlar tomonidan yondirilgan. Ichki nizolardan zaiflashgan angl-saks qiroliklari istilochilarni qaytara olmagan. Oqibatda, normannlar 842-yilda **Londonni** bosib olib, talaydilar va yondirib yuboradilar. **Qirol Buyuk Alfred.** Buyuk Alfred (871—900) Uesseksda taxtga kelguniga qadar daniyaliklarni hech kim to‘xtatishga qodir bo‘lmagan. Buyuk Alfred butun Angliyadan bosqinchilarni jazolash orzusidagi jangchilarni yig‘adi. U bu qo‘shin bilan daniyaliklarni bir necha bor mag‘lub etadi. Alfred 879-yilda daniyaliklar bilan tinchlik sulhini tuzadi. Unga binoan, butun orol ikki qismga bo‘linib: janubiy hududlar Alfredga, shimoliy hududlar esa daniyaliklarga beriladi. Chegara London va Chechter oralig‘idagi qadimgi rimliklar qurdirgan tosh yo‘l bo‘ylab o‘tadi. Skandinavlariga qoldirilgan yerlar **Denlo** nomini oladi. Alfred tinchlik sulhidan yangi kuchli qo‘shin tuzish uchun foydalandi. Ma‘lumki, avvallari dushman xavfi tug‘ilganida xalq lashkari to‘planardi. Endi har beshta angl-saks oltinchisini boqishi vaqurollantirishi majburiy etib qo‘yiladi. Natijada tinimsiz urushlar davrida qishloqning ko‘pchilik aholisi o‘z ishidan ajratilmagan. Yangi qoidaga binoan, besh kishi oltinchisini dubulg‘a, qilich va jang boltasi bilan ta‘minlab, **viking**dan kam qurollantirmagan. Alfred daniyaliklar qal‘alarni qamal qilishni unchalik xush ko‘rmasligini anglab, o‘z mulklari chegaralarida ko‘plab qal‘alar – **burglar** barpo ettiradi. Qirol kema yasaydigan ustalarni topib, daniyaliklarnikidan qolishmaydigan kemalarni yasattiradi. Qirol Alfred faqat qo‘shin bilan shug‘ullanmagan. U o‘z davrining ma‘lumotli kishisi bo‘lgan. Uesseksda esa daniyaliklar hujumlaridan keyin lotin tilini biladigan odamlar deyarli qolmagan edi. U eski angl-saks qonunlarini yozishni va Angliya tarixiga oid ma‘lumotlar to‘plashni buyuradi. Buyuk Alfred davrida «**Anglosakson solnomasi**» tuzilib, unda yilma-yil muhim voqealar qayd etila boshlanadi. **Denloning qaytarilishi.** Qirol Alfredning o‘limidan so‘ng uning vorislari Denloga hujum boshlaydi. Yangi qo‘shin muvaffaqiyatli harakat qilib, X asrning so‘nggi choragiga kelganda Angliya qirolligi (bu paytda avvalgi Britaniya nomi yangi Angliya atamasi tomonidan uzil-kesil surib chiqarilgan) Daniya qonunlari viloyatini qo‘shib oladi.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tarix fanidan 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Narxi: 25 ming so'm


Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar



UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.